

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

YUSUPOV MURODJAN AXMEDJANOVICH

**QO‘L BARMOQLARI DERMATOGILIFIK KO‘RSATKICHLARI
ASOSIDA YAQIN QARINDOSHLIKNI ANIQLASHNING SUD TIBBIY
MEZONLARI**

14.00.24- SUD TIBBIYOTI

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERAT**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Yusupov Murodjan Axmedjanovich

Qo‘l barmoqlari dermatogliflik ko‘rsatkichlari asosida yaqin qarindoshlikni aniqlashning sud tibbiy mezonlari..... 3

Юсупов Муроджан Ахмеджанович

Судебно-медицинские критерии определения близкого родства на основе дерматоглифических показателей пальцев рук..... 23

Yusupov Murodjan Ahmedjanovich

Determination of close relationship by dermatoglyphic features of the distal phalanges of the fingers in a forensic medical examination..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

YUSUPOV MURODJAN AXMEDJANOVICH

**QO‘L BARMOQLARI DERMATOGILIFIK KO‘RSATKICHLARI
ASOSIDA YAQIN QARINDOSHLIKNI ANIQLASHNING SUD TIBBIY
MEZONLARI**

14.00.24- SUD TIBBIYOTI

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERAT**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Tib2524 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent tibbiyot akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fjsti.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Baxrom Sabirjanevich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xasanova Mukarrama Almarejanovna
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Nazirov Sirochiddin Nazirovich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona shaxri, Yangi Turon ko‘chasi 2 a-uy. Tel.: (+99895) 400-01-14, Tel./faks: (99873) 245-59-07, e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2- a uy. Tel.: (+99895) 400-01-14, Tel./faks: (99873) 245-59-07, e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» _____ da tarqatildi.

(2024-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Sidikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

S.A. Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.I. Ruziev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Qo‘l barmoqlarining dermatoglik ko‘rsatkichlari asosida yaqin qarindoshlikni aniqlashni sud-tibbiy mezonlarini o‘rganish sud-tibbiyot amaliyotida qarindoshlik aloqalarini aniqlashning to‘g‘ri va oson usullarini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq. Jahon amaliyotida genetik tahlillarga asoslangan usullar katta moliyaviy va vaqt xarajatlarini talab qiladi, shuning uchun genetik testlar imkonsiz yoki maqsadga muvofiq bo‘lmagan hollarda yordamchi yoki mustaqil usul sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan dermatoglik kabi qo‘shimcha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi (Smith J., 2020).

AQSH va Yevropada dermatoglik bir necha o‘n yillar davomida o‘rganilib kelmoqda va qo‘l barmoqlaridagi naqshlar va genetik markerlar o‘rtasidagi korrelyasion bog‘liqlikni tasdiqlovchi katta hajmdagi ma‘lumotlar to‘plangan, bu o‘z navbatida oilaviy munosabatlarni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkin (Johnson M., 2019). Ushbu usul sud tibbiyotida shaxs identifikatsiyasi va irsiy kasalliklarni aniqlash uchun qo‘llaniladi, bu esa uni sud ekspertizasi sohasida istiqbolli qiladi (Allemann Y. et al., 2018).

Markaziy Osiyo mamlakatlarida dermatoglik sohasidagi tadqiqotlar ancha tor yo‘nalishga ega, ammo sud tibbiyotida bu usuldan foydalanishga qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Qozog‘iston va O‘zbekistonda dermatoglik shaxslarni identifikatsiya qilish hamda qarindoshlik aloqalarini o‘rnatishning yordamchi usuli sifatida o‘rganilmoqda, bu ayniqsa genetik tahlil uchun resurslar cheklangan sharoitda muhim ahamiyatga ega (Karimov M. et al., 2019).

Sud-tibbiyot amaliyoti faol rivojlanayotgan O‘zbekistonda dermatoglik ko‘rsatkichlar, ayniqsa, irsiy kasalliklar yoki ommaviy ofatlarda yoki sud-tergov jarayonlarida shaxsning identifikatsiyasi bilan bog‘liq holatlarda oilaviy munosabatlarni o‘rnatish masalalarini hal etishda muhim vositaga aylanishi mumkin (Abduraimov I.R., 2020). O‘zbekistonda dermatoglikaga asoslangan sud-tibbiyot mezonlarini ishlab chiqish qarindoshlik munosabatlarini o‘rnatish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin, bu esa tadqiqot mavzusiga ham ilmiy, ham amaliy jihatdan yuqori dolzarblik beradi.

Ayni paytda, dermatoglik va daktiloskopiyaning zamonaviy holatida ehtimoliy qarindoshlar o‘rtasidagi qondoshlik munosabatlarini faqat ularning dermatoglik belgilarini taqqoslash asosida aniqlashning imkoni yo‘q. Hozirgi vaqtda dermatoglik bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassisning fikri, birinchi navbatda, ma‘lum bir dermatoglik usuli natijalariga emas, balki uning tajribasi va mahoratiga asoslanadi. Ekspert baholashning sub‘yektiv ko‘rinishi ilmiy adabiyotlarda dermatoglik belgilarning turli kombinatsiyalari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar juda kamdan-kam taqdim etilishi bilan izohlanadi. Ekspertning o‘z hisobotida qo‘llanilgan statistik usullarning batafsil tafsiloti asosiy hujjat sifatida qabul qilinmaydi va xulosani rasmiylashtirishda muhim hisoblanmaydi, lekin bunday izoh faqat sud tartibida talab qilinishi mumkin. Shuning uchun dermatoglik usulning aniqligi va ob‘yektivligini oshirish uchun nafaqat uni qayta ishlash, balki statistik tahlil bilan aprobatsiya natijalarini nashr etish ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son, 2018-yil 7-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5590-son, 2020-yil 12-noyabrda «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6110-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-mayda «Tibbiyot va farmasevtika ta‘limi va ilm – fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4310-son, 2020-yil 12-noyabrda «Tibbiy-profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4891-son, 2021-yil 25-mayda «Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5124-son, 2021-yil 28-iyulda «Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5199-son qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi: VI - «Tibbiyot va farmakologiya» ga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Rossiyada qarindoshlikni aniqlash usullari *T. D. Gladkova* (1964), *I. S. Guseva* (1986) tomonidan taqdim etilgan. Qarindoshlik ekspertizalarida va shaxsiy identifikatsiyani tekshirishda derymatogliflik naqshlar kongressdan 60 yil o‘tgach, tez sur‘atlar bilan qo‘llanila boshlandi. Qarindoshlikni aniqlashning uch bosqichli usuli *V.N.Zvyagin* va *I.B. Tarasov* (1989) tomonidan ishlab chiqilgan. *A. P. Bojchenko* (2000), *O. M. Fandeyeva* (2002), *L. Yu. Shpak* (2003) va boshqalarning keyingi tadqiqotlari sud tibbiyotida dermatogliflik usuldan foydalanishni sezilarli darajada kengaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasida «Sud-tibbiyot ekspertizasi dermatoglifikasi»ga birinchi bo‘lib *A.I.Iskandarov* tomonidan asos solingan (2011y). 2011- yilda ADCC 3070 sud-tibbiy dermatoglifikaga asoslangan holda «Inson shaxsini identifikatsiyalash kompleksi» davlat granti doirasida tadqiqot olib bordi. *A.I. Iskandarova* rahbarligida *Sh.I. Ro‘ziyev* II tip qandli diabetda qo‘l barmoqlarining spesifik dermatogliflik belgilarni o‘rgandi. *A.Yu.Shamsiyev* suisidal holatlarda kaft barmoqlarining dermatogliflik jihatlarini tahlil qildi. Shuningdek, *O.J.Qo‘ziyevning* o‘zbek populyasiyasidagi shaxslar dermatoglifikasining sud-tibbiy jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari ham mavjud. Kelajakda shaxsiyatning identifikatsiyasi va otalikni taxmin qilish holatlarida dermatoglifika asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida sud-tibbiy dermatoglifika sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning yetarli emasligi qo‘l barmoqlaridagi dermatogliflik naqshlarni o‘rganish bo‘yicha

dermatoglifika sohasida maqsadli tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari dermatoglifik ko'rsatkichlar bo'yicha sud-tibbiy ekspertiza xulosalarining sifati va ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Dissertatsiya mavzusi va ish olib borilgan oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari o'rtasidagi bog'liqlik. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq, «Qarindoshlikni aniqlash va shaxs identifikatsiyasi, sud-tibbiy diagnostika, zamonaviy texnologiyalarni yaratish va joriy etish» ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek populyasiyasida qarindoshlikni aniqlash va shaxsiyatni identifikatsiya qilishda sud-tibbiy ekspertiza o'tkazish uchun barmoqlar distal falangalarining dermatoglifik belgilaridan foydalanish samaradorligini baholash.

Tadqiqotning vazifalari:

irsiyat bilan bog'liq bo'lgan xarakterli belgilarni aniqlash uchun o'zbek populyasiyasida oilaviy tripletlar (ota-ona-farzand) va soxta tripletlarda barmoqlar distal falangalarining dermatoglifik belgilarini qiyosiy tahlil qilish;

qo'l barmoqlari distal falangalaridagi naqsh markazidagi chiziqlar oqimining yo'nalishi asosida etnik guruxlarda irsiyat bilan bog'liq tarzidagi qarindoshlikni belgilovchi belgilarni o'rganish;

ota-onalar va ularning bo'lajak farzandi o'rtasidagi qarindoshlikni tasdiqlash yoki rad etish uchun naqsh turi, naqsh balandligi, del'talar soni va chiziqlar oqimi shaklini o'z ichiga olgan dermatoglifik belgilar bo'yicha identifikatsiyalash tartibini ishlab chiqish va aprobatsiyadan o'tkazish;

bahsli otalik va onalikni aniqlash bo'yicha qo'l barmoqlarining distal falangalarida dermatoglifik alomatlarining umumiy va alohida belgilarini aniqlab beruvchi mukammal matematik modelni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: o'zbek populyasiyasi orasida 2021-2023-yillar davomida konstitutsiyaviy irqi, jinsi va yoshi hamda antropometrik ma'lumotlardan tashqari, 5 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan 450 nafar ko'ngilli erkak va ayoldan barmoqlarning distal falangalari dermatoglifik ko'rsatkichlarining tahliliy natijalari olindi.

Tadqiqot predmeti: 450 ta tirik odamning barmoq izlarini dermatoglifik tahlil qilish va tekshiriluvchilarning antropometrik o'lchamlarini tahlil qilish natijalari olindi.

Tadqiqot usullari. Barmoq izlari namunalarini olish uchun siyohsiz daktiloskopik skanerlash usullari, olingan izlarni o'rganish uchun – dermatoglifik usul, bo'y va vazni o'lchash uchun – antropometrik usullar, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun – statistik usullar qo'llanildi.

Qo'l barmoqlari distal falangalaridan barmoq izlari
namunalarini olish usuli:

Dermatografik karta № 12.

Familiya: Yusupov

Ismi: Muzaffar

Otasining ismi: Adamboyevich.

Tug‘ilgan yili: 14.03.1985 yil.

Tug‘ilgan joyi: Xorazm viloyati.

Yashash manzili: Xorazm viloyati, Urganch shahri, Navro‘z mahallasi, Urganch 350 yilligi ko‘chasi, 55-uy.

Millati: o‘zbek .

Bo‘yining uzunligi: 175 sm .

Tana tuzilishi: normostenik.

Irsiy kasalliklar: rad etadi.

Ota-onalari: otasi – Yusupov Adamboy, onasi – To‘rayeva Qumri.

O‘ng qo‘l

1.Bosh

2.Ko‘rsatkich

3.O‘rta

4.Nomsiz

5.Jimjiloq



Chap qo‘l

1.Bosh

2.Ko‘rsatkich

3.O‘rta

4.Nomsiz

5.Jimjiloq



Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor o‘zbek populyasiyasiga mansub oila guruhlarida va soxta tripletlarda qo‘l barmoqlarning distal falangalaridagi dermatoglifik belgilarni tavsiflovchi naqsh turi, uning balandligi, papillyar chiziqlar sanog‘ini va genetik aloqadorligi qiyosiy taxlili asosida isbotlangan;

qo‘l barmoqlari distal falangalaridagi naqsh markazidagi chiziqlar oqimining yo‘nalishi asosida etnik guruxlarda irsiyat bilan bog‘liq tarzdagi qarindoshlikni belgilovchi marker ishlab chiqildi;

ota-onalar va ehtimoliy farzand o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlash yoki rad etish uchun naqsh turi, balandligi, deltalar soni va naqsh markazidagi chiziqlar oqimining shaklini o‘z ichiga olgan qo‘l barmoqlari distal falangalari dermatogliflik belgilar bo‘yicha identifikatsiyalash tartibi ishlab chiqildi;

bahsli otalik va onalikni aniqlash bo‘yicha ilk bor qo‘l barmoqlarining distal falangalarida dermatogliflik alomatlarining umumiy va alohida belgilarini aniqlab beruvchi mukammal matematik model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan usul qo‘llar barmoqlari distal falangalaridagi dermatogliflik alomatlar bo‘yicha ota-ona va ularning taxmin qilinayotgan bolasi o‘rtasida qon-qarindoshlik bor yoki yo‘qligini aniqlashga imkon berdi;

ishlab chiqilgan tavsiyalar qo‘llar barmoqlarini birgalikda tekshirish esa usulning ishonchliligini oshiradi. Bilateral va gomolateral simmetriyalar, qo‘llar barmoqlari distal falanganlaridagi dermatogliflik alomatlarni solishtirib tekshirish usuli, naqsh markazida chiziqlar oqimi shaklining klassifikatsiyasini morfologiya, antropologiya, dermatoglifika, sud tibbiyoti va kriminalistikada keng qo‘llash mumkin;

ota va onaning dermatogliflik alomatlarini meros qilib olishdagi aniqlangan farqlanishlardan antropologiya va klinik tibbiyotda foydalanilish mumkin;

ushbu usul qon-qarindoshlikni aniqlash va shaxsni identifikatsiya qilish sud-tibbiyot ekspertizasi uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ko‘p sonli tanib olinmagan murdalar orasidan qidirilayotgan shaxslar va ularning qarindoshlarini izlash uchun xizmat qiladi;

shuningdek elektron arxivdan vafot etgan shaxsning dermatogliflik alomatlarini uning tirikligida olingan daktiloskopik izlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Bu ilmiy tadqiqotlarda nazariy yondashuvlar va usullardan foydalanish, olingan natijalar bilan materiallarning mosligi, zamonaviyligi, bir-birini to‘ldiruvchi sud-tibbiy dermatogliflik va statistik usullardan foydalanish, shuningdek, yetarli miqdordagi oila tripleti barmoq andozalarini tekshirish, daktiloskopik usullarni takomillashtirish, dermatogliflik alomatlarni dominant ko‘rsatkichlar bilan solishtirish va ularni sud-tibbiy tashhisiy mezonlarini ishlab chiqish, statistik tahlil usullarining asosli to‘plami, shuningdek ularni to‘g‘ri qo‘llash, ularning respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda ko‘p marotaba muhokamadan o‘tganligi va nashr qilinganligi, olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish uchun vakolatli komissiya xulosalarining mavjudligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishlab chiqiladigan usullar insonlarning ommaviy halok bo‘lishi bilan bog‘liq halokatlarda, burdalangan murdalarni biometrik saralashda, jinoyat joyida qoldirgan qo‘l izlari bo‘yicha jinoyatchini tasvirlashda, o‘zi haqida ongli ravishda yoki patologik sabablarga ko‘ra ma‘lumotlar bermaydigan yoki yolg‘on ma‘lumotlar beradigan insonlar shaxsini aniqlashda, kichik yoshdagi bolalarni va xotirasini yo‘qotib qo‘ygan insonlarni shaxsini aniqlashda; Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kriminalistika

sohasining gomeoskopiya usulida hodisa sodir bo'lgan joyda qolgan qo'l izlariga qarab, jinoyatchini tasvirlash; voqea-hodisa yuz bergan joyda qolgan barmoq izlariga qarab, jinoyatda qatnashgan shaxslar sonini aniqlash hamda turli joylarda yuz bergan holatlardan olingan barmoq izlarining yagona shaxsga mansub bo'lishi ehtimolini aniqlashga aloqador masalalarni hal qilishda, shuningdek baxsli otalik va onalik ekspertiza natijalarining ishonchligini, to'liqligini va har tomonlama asoslash bilan izohlanadi.

Dermatoglifika bo'yicha olingan ma'lumotlar oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrleri hamda sud tibbiyoti ekspertlarini kasbga tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida o'quv dasturlariga kiritilishi ham mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali ekspert kengashining 2023-yil 17-maydagi № 31-sonli ilmiy yangiliklarni amaliy sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish to'g'risidagi xulosasiga asosan:

Birinchi ilmiy yangilik: ilk bor o'zbek populyatsiyasiga mansub oila guruhlarida va soxta tripletlarda qo'l barmoqlarning distal falangalaridagi dermatoglifik belgilarni tavsiflovchi naqsh turi, uning balandligi, papilliyar chiziqlar sanog'ini va genetik aloqadorligi qiyosiy tahlili asosida isbotlangan. Ushbu yangilik Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Farg'ona filiali (34-K; 29.04.2024;) Buxoro filiali (№10;02.02.2024;) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Ekspert kengashining 2023 yil 17-maydagi №31-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig'i bo'yicha xulosasi bilan tasdiqlangan). Ijtimoiy samaradorligi: tavsiya etilgan algoritm va usullarni ekspert amaliyotiga joriy etish natijasida qon-qarindoshlikni aniqlash va shaxsni identifikatsiya qilish sud-tibbiyot ekspertizalarini olib borish jarayonida qo'l barmoqlarining distal falangalaridagi dermatoglifik alomatlar xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ekspert xulosalari sifatini oshirish uchun xizmat qilgan. Iqtisodiy samaradorligi: tavsiya etilgan usullardan foydalanish natijasida ekspertiza muddati 10-15 kundan 1-2 kungacha qisqardi, bahsli otalik va onalikni aniqlashda qo'shimcha usul sifatida qonning sud biologik tekshiruv bilan taqqoslanganda har bir tekshiruv 86% samaradorlik erishilgan, taklif qilinayotgan usulda ushbu ko'rsatkich 96% samaradorlikka erishilgan. Xulosa: ushbu qo'llanma dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga mos dermatoglifik belgilarini solishtirib tekshirish asosida sud – tibbiy ekspertiza xulosalarini sifatini yuqori darajaga ko'tarishga imkon bergan.

Ikkinchi ilmiy yangilik: ishlab chiqilgan usullar qo'l barmoqlari distal falangalaridagi naqsh markazidagi chiziqlar oqimining yo'nalishi asosida etnik guruhlarda irsiyat bilan bog'liq tarzidagi qarindoshlikni belgilovchi marker asoslangan. Ushbu algoritm dasturiy ta'minot orkali bahsli otalik va onalik muammolari bilan bog'liq o'tkaziladigan murakkab ekspertizalarda sud-tibbiy ekspertiza sifatini oshirishga yordam bergan va Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg'ona filiali (34-K;29.04.2024;) Buxoro filiali (№10;02.02.2024;) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Ekspert kengashining 2023 yil 17-maydagi №31-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig'i bo'yicha xulosasi bilan

tasdiqlangan). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: tadqiqot natijalarini amaliyotiga joriy etish natijasida ko'ngilli tekshiriluvchilarning barmoq andozalari tahlili hamda ularning qon guruhi tahlillari bilan solishtirib tekshirish amaliyoti o'tkazilgan bo'lib, bu o'z navbatida, ekspert xulosalarining sifatini, ishonchliligini va asosliligini ta'minladi, bu orqali qo'shimcha va takroriy ekspertiza o'tkazish zaruriyatini bartaraf etdi, natijada ekspertizalarni yakunlash vaqti qisqardi. Xulosa: Bahsi otalik va onalikni hamda shaxs identifikatsiyasida barmoq andozalarni dermatogliflik tekshirish usullariga tayangan holda tekshiruvlarni o'tkazish o'zining tezkorligi, aniqligi va natijalarning holisligi bilan boshqa qo'shimcha usullardan ustunligi isbotlandi. Olingan natijalar bahsli otalik ekspertizalarida hamda shaxs identifikatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ekspertizalarda sud tibbiy ekspertiza asosligi, aniqligi va sifatini oshirdi.

Uchinchi ilmiy yangilik: ota-onalar va ehtimoliy farzand o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlash yoki rad etish uchun naqsh turi, balandligi, del'talar soni va naqsh markazidagi chiziqlar oqimining shaklini o'z ichiga olgan qo'l barmoqlari distal falangalari dermatogliflik belgilar bo'yicha identifikatsiyalash tartibi shlab chiqilgan. Bahsli otalik va onalik ekspertizalarida ularning taxmin qilinayotgan farzandi o'rtasida qon-qarindoshlik bor yoki yo'qligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg'ona filiali (34-K; 29.04.2024;) Buxoro filiali (№10;02.02.2024;) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: taklif etilgan usullar bu o'z navbatida, ekspert xulosalarining sifatini, ishonchliligini va asosliligini ta'minlagan, bu orqali qo'shimcha va takroriy ekspertiza o'tkazish zaruriyatini bartaraf etdi, natijada ekspertizalarni yakunlash vaqti qisqargan. Iqtisodiy samaradorligi: Bahsi otalik va onalikni hamda shaxs identifikatsiyasida barmoq andozalarni dermatogliflik tekshirish usullariga tayangan holda tekshiruvlarni o'tkazish o'zining tezkorligi, aniqligi va natijalarning xolisligi bilan boshqa qo'shimcha usullardan ustunligi bilan izohlanadi. Xulosa: olingan natijalar bahsli otalik ekspertizalarida hamda shaxs identifikatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ekspertizalarda sud – tibbiy ekspertlar uchun ekspertiza xolisligi, aniqligi, ishonchligi va sifatini oshirishga imkon bergan.

To'rtinchi ilmiy yangilik: bahsli otalik va onalikni aniqlash bo'yicha ilk bor qo'l barmoqlarining distal falangalarida dermatogliflik alomatlarining umumiy va alohida belgilarini aniqlab beruvchi mukammal matematik model ishlab chiqilgan. Bu usullar ko'p sonli tanib olinmagan murdalar orasidan qidirilayotgan shaxslar va ularning qarindoshlarini tezkorlik bilan topish uchun xizmat qilgan va Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg'ona filiali (34-K; 29.04.2024;) Buxoro filiali (№10;02.02.2024;) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: tavsiya etilgan algoritmi va usullarni ekspert amaliyotiga joriy etish natijasida qon-qarindoshlikni aniqlash va shaxsni identifikatsiya qilish kabi sud-tibbiyot ekspertizalarini olib borish jarayonida qo'l barmoqlarining distal falangalaridagi dermatogliflik alomatlari xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ekspert xulosalari sifati, asosliligi, ishonchliligi oshirilgan. Iqtisodiy samaradorligi: tavsiya etilgan usullardan foydalanish natijasida ekspertiza muddati 10-15 kundan 1-2 kungacha qisqardi, bahsli otalik va onalikni yoki shaxs identifikatsiyasida qo'shimcha usul sifatida qonning sud biologik tekshiruvi bilan taqqoslasak har bir tekshiruv 86% samaradorlik erishilgan,

taklif qilinayotgan usulda ushbu ko'rsatkich 96% samaradorlikka erishilgan. Xulosa: olingan natijalarga ko'ra bahsli otalik va onalikni hamda shaxs identifikatsiyasida barmoq andozalarini dermatogliflik tekshirish usullariga tayangan holda ekspertiza ijro muddatini qisqarishi, tekshiruvlarni o'tkazish o'zining tezkorligi, kamxarjligi, aniqliligi va natijalarining xolisligi o'rganilgan. Ilmiy yangilikdan keng foydalanish. "Qo'l barmoqlari dermatogliflik ko'rsatkichlari asosida yaqin qarindoshlikni aniqlashni sud tibbiy mezonlari" mavzusida olingan ilmiy natijalar Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg'ona va Buxoro filiallari amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 1 ta xalqaro ilmiy kongress va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANI ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida, tadqiqotishining dolzarbligi yuzasidan olib borilgan ishlar bayoni, olib borilgantadqiqotning maqsad va vazifalar belgilab berilgan bo'lib, tadqiqot obyekti va predmetlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalariga oid rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga mos ravishda ko'rsatilgan; olib borilgan tekshiruvlarning ilmiy yangiligi hamda ularning amaliy ahamiyati natijalari bayon qilingan; erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi, adabiyotlar sharhi deb nomlangan bo'lib, dermatoglifika va daktiloskopiya sohasining zamonaviy peshqadam mutaxasislari, hozirgi zamon olimlari qo'llar va oyoqlardagi barmoq naqshlari xarakteristikasidan kompleksli foydalanishning imkoniyati haqida bir necha bor ta'kidlab kelganlar, ammo qo'llar barmoq andozalaridagi dermatogliflik alomatlarining o'zaro bog'liqligi masalasi yetarlicha o'rganilmagan, shuningdek dermatogliflik belgilarning diagnostikasi bo'yicha tadqiqotlar deyarli o'tkazilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida-tekshiruv natijalaridan olingan umumiy algoritim shuningdek qo'l barmoqlarini izlarini olishga qaratilgan bio'metric skanerlash usuli hamda dermatogliflik belgilarning to'laqonli bayoni, uning terminolo'giyasi tasnifi, tekshiruv materiallarining umumiy tavsifi, tekshiruv usullari va statistic tahlil natijalari keltirib o'tilgan. Tadqiqotlarquyidagi guruhlar kuzatuv bo'yicha o'tkazildi:


Tadqiqotlar o'zbek millatiga oid Xorazm viloyati Urganch shahar va Urganch tumanida ko'ngilli aholisi o'rtasida olib borildi. Mazkur ilmiy tadqiqot 450 nafar

ko'ngilli insonlarning dermatoglifik alomatlari o'rtasidagi bog'liqlik tekshirildi. Hisob-kitoblarda 106 ta ko'ngilli oila a'zolarining qo'llari barmoqlari distal falangalarining izlaridan foydalanildi. Qarindoshlardan tashqari sohta tripletlar guruhiga qo'shimcha yana 50 ta odam kiritildi. Ikkala tanlab olishlarda ham o'g'il bolalar va qiz bolalarning soni teng bo'ldi. Oila guruhlarida ota-onalar (1-rasm) va bolalar jinsi va yoshi bo'yicha taqsimlandi (2-rasmga qarang).

Barmoq izlarini olishda maxsus barmoq yostiqchalarini tasvirini olishga mo'ljallangan biometrik skanerdan foydalanildi. Barmoq andozalarini tahlil qilishda "FM" DGU 2021 0284-sonli dasturdan foydalanildi.



1-rasm. Oila guruhida ota va onalarning yosh va jinsi bo'yicha taqsimlanishi



2-rasm. Oila guruhida bolalarning jinsi va yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Tadqiqot uchun o'ng va chap qo'llarning barcha barmoqlari izlarini mukammal olish imkoniga ega bo'lgan shaxslar tanlab olindi. Dermatoglifik belgilarni ko'rinishlarini o'zgartirishga qodir, ko'z bilan aniqlanadigan genetik kasalliklari mavjud bo'lgan hamda distal falangalar naqsh genezida displaziyalari bo'lgan shaxslar tekshiruvdan chetlatildi.

Oilalari o'rtasidagi qarindoshlik pasport va tug'ilganlik guvohnomalari ma'lumotlari bo'yicha aniqlandi, bir qator holatlarda qon serologik usul bilan tekshirilib aniqlandi.

Tadqiqotning umumiy algoritmi bir necha bosqichdan iborat:

- hujjatlarni tekshirish, pasport va shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni qayd etish, jumladan, antropometrik ma'lumotlari hamda maxsus tekshirish ma'lumotlari;
- biometrik skaner yordamida barmoqlar distal falangasi naqsh tasvirini olish;
- ma'lumotlarni elektron bazaga kiritish va oila tripletlarini kodlash;
- barmoq andozalari tasvirini elektron bazasiga joylash;
- dermatoglifik alomatlarni kodlash;
- olingan natijalarni avtomatik tarzda tahlil qilish;

Barmoq naqshlarining dermatoglifik terminologiyasi

Tadqiqot jarayonida dermatoglifik umum qabul qilingan terminlardan foydalanildi:

- *papillary naqsh* – ma'lum bir rasmni tashkil qiladigan papillary chiziqlar guruhi;
- *ulnar (fibulyar) oriyentatsiya* – beshinchi barmoq tomoniga yo'nalishi;
- *tibial (radial) oriyentatsiya* – birinchi barmoq tomoniga yo'nalishi;
- *distal oriyentatsiya* – barmoqlar uchlari tomoniga yo'nalish;
- *proksimal oriyentatsiya* – unga teskari yo'nalish;
- *delta (uchradius)* – uchta turli yo'nalishdagi papillary chiziqlar tizimining kesishgan joyi;
- *delta radiantlari* – uchradiusdan boshlanadigan va tojsimon qirralarning uchta oqimini bir-biridan chegaralab turadigan teri tojsimon qirralari;
- *naqsh maydoni* – delta radiantlari yoki deltaga yaqin joylashgan chekka tojsimon qirralar bilan chegaralangan barmoq naqshining markaziy qismi;
- *naqsh markazi* – barmoq naqshi ichidagi eng markaziy nuqta;
- *lokal (barmoqqa oid) deltali sanoq* – qo'lning bitta barmog'idagi deltalar soni;
- *barmoqlarning umumiy delta sanog'i (UDS)* – qo'l barmoqlaridagi barcha deltalar soni.

Dissertatsiyaning “**Populyatsiyada dermatoglifik alomatlarni tahlil qilish, naqsh turlari, balandligi, naqsh markazidagi chiziqlar oqimining xususiyatlariga**” bag'ishlangan uchinchi bobida qo'l barmoqlari distal falangalaridagi dermatoglifik belgilar kesimida keltirilgan.

Barmoq naqshlarining sifatiiy alomatlari ko'rinishining baholanishi (1-jadvalga qarang) quyidagi ko'rinishda bo'ldi.

1-jadval

Barmoq naqshlarini sifatiiy alomatlari

Naqsh turi	Balandligi	Naqsh markazida chiziqlar oqimining shakli
ravoq; halqa; gajak; murakkab naqsh;	past; o'rta; baland;	oddiy (parallel, aylana spiral (uyurmali); T- simon;

Barmoq naqshlari ko'rinshining miqdoriy alomatlari ko'rinishi (2-jadvalga qarang).

Barmoq naqshlarining miqdoriy alomatlari

Delta sanog'i
lokal (bitta barmoqda); o'ng (chap) qo'l barmoqlarining delta sanog'i; umumiy delta sanog'i (qo'llar barmoqlari)

Tadqiqotning matematik usullari: populyatsiya va oilaviy guruhlarda qo'l barmoqlaridagi alomatlarning umumiy va alohida taqsimlanish xususiyatlarini aniqladik. Ma'lumotlarning tavsifiga statistik ishlov berildi. Erishilgan natijalarning ahamiyatliligi mavjud ko'rsatkichlar farqini ikkiga ko'paytirilgan o'rtacha xatolikni solishtirish yo'li bilan aniqlandi. Bunda alomatlarning har ikkala guruhi bitta populatsiyadan olinganligi ham inobatga olindi.

Farqning o'rtacha xatosi quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:

$$\sqrt{(pq : n_1) + (pq : n_2)} \text{ (A. Brelford Xill, 1958),}$$

p – tanlab olingan dermatoglik alomatning foizli ko'rsatkichi, q – teskari ko'rsatkich, n_1 va n_2 – har bir guruhda kuzatuvlar soni.

Ota-ona va bola o'rtasidagi qarindoshlik *Orczykowska-Światkowska Z., Krajewska A.* tomonidan taqdim etilgan dermatoglik o'xshashlik indeksini aniqlash usulini modifikatsiyalashtirib so'ngra – *ISD* baholandi:

$$ISD = 2 \sum_i \text{Log} \frac{1}{c_i} - 2 \sum_i \log C_i ,$$

C_i – populyatsiyada alomatlarning uchrab turish chastotasi;

$2 \log \frac{1}{c_i}$ – ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'xshashlik alomatlari (musbat qiymatga ega);

$2 \log C_i$ – ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'xshashlik alomatlari (manfiy qiymatga ega);

ISD – ota-ona va bolaning fenotipik o'xshashligi va dermatoglik alomatlarning farqlanishining jami.

Alomatning ma'lumotlilik ahamiyati uning populyatsiyada uchrab turuvchanlik chastotasiga bog'liq (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Alomatning uchrab turuvchanlik chastotasi va uning miqdoriy qiymati

Uchrab turuvchanlik chastotasi, %	O'zining bolasi	Begona bola
	$2 \log \frac{1}{c_i}$	$2 \log C_i$
<0,5	6	1
0,5-1,7	5	2
1,8-6,1	4	3
6,2-20,1	3	4
20,1-68,0	2	5
>68,0	1	6

ISD qo'llar barmoqlarining barcha 40 alomatlari ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblab chiqildi.

Solishtirish algoritmi ishonchli hisoblanib qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun maxsus ishlab chiqildi.

Olingan natijalar.

Qo'llar barmoqlarining distal falangalaridagi dermatoglik alomatlarining taqsimlanishi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Qo'llar barmoqlarida naqshlar turlarining foizlarda taqsimlanishi

Naqsh	O'ng qo'l						Chap qo'l					
	I	II	III	IV	V	O'rt	I	II	III	IV	V	O'rt
Lu	18,87	11,73	24,68	15,68	29,05	100,0	19,56	12,34	22,37	18,26	27,47	100,0
Lr	0,00	83,94	9,87	4,95	1,22	100,0	0,00	76,84	10,97	7,33	4,89	100,0
W	28,28	20,17	11,05	31,88	8,63	100,0	22,41	24,43	15,06	29,34	8,77	100,0
A	5,42	46,50	30,22	10,09	7,76	100,0	13,21	40,52	27,26	11,56	7,45	100,0
LW	15,07	30,18	15,08	20,76	18,88	100,0	45,22	21,91	10,95	5,08	6,86	100,0

Kutilganidek, turli qo'llar barmoqlarda dermatoglik alomatlar yetarlicha notekis taqsimlangan. Qo'llarning alohida barmoqlarida naqsh turlarining taqsimlanishi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Qo'llarning alohida barmoqlarida naqsh turlarining taqsimlanishi, %

Naqsh	O'ng qo'l						Chap qo'l						O'rt.
	I	II	III	IV	V	O'rt	I	II	III	IV	V	O'rt	
Lu	52,74	33,01	69,24	44,01	81,51	56,09	60,26	38,01	69,01	56,24	84,74	61,86	58,87
Lr	0,00	17,01	2,01	1,01	0,23	4,06	0,00	15,76	2,26	1,51	1,00	4,09	4,07
W	43,51	31,01	17,00	49,10	13,24	30,74	27,51	30,00	18,51	36,00	10,76	24,54	27,64
A	1,76	15,00	9,74	3,26	2,49	6,44	4,00	12,24	8,24	3,52	2,24	6,06	6,24
LW	2,09	4,08	2,00	2,73	2,51	2,64	8,24	4,00	2,00	2,76	1,24	3,64	3,16
Σ	100,0						100,0						100,0

Naqsh turlarining chapdagiga nisbatan o'ng qo'llarda o'rtacha statistik taqsimlanishini taxminan simmetrik deb hisoblash mumkin, chunki olingan qiymatlar o'zaro bir-biriga juda yaqin, o'ndan va yuzdan bir foizgagina farq qiladi. Maksimal farq gajaklar uchun aniqlangan bo'lib, 3,1 % ni tashkil qildi.

O'ng va chap qo'llarning bir xil nomdagi barmoqlarida past va o'rtacha balandlikdagi naqshlar, baland naqshlarga nisbatan naqshlarning turlari bo'yich solishtirilganda simmetriklikni yuqoriligi namoyon qildi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

O'ng va chap qo'llarning har bir barmoqlarida dermatoglik naqshlar balandligini taqsimlanishi, %

Ba-land-lik	O'ng qo'l						Chap qo'l						O'r-tacha
	I	II	III	IV	V	O'rt	I	II	III	IV	V	O'rt	
Past	53,24	25,26	18,00	10,74	34,01	28,24	47,51	18,51	10,49	8,76	26,00	22,24	25,24
O'rt.	46,74	72,01	74,51	79,24	63,76	67,24	52,24	77,51	83,74	82,76	72,00	73,64	70,46
Bal.	0,00	2,74	7,51	10,00	2,26	4,51	0,23	4,00	5,74	8,51	2,00	4,11	4,32
Σ	100,00						100,00						100,00

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida—“Oila guruhlarida qo'llar barmoqlaridagi dermatoglikfik naqshlarning shakllanish va taksimlanish xususiyatlari” kayd etilgan.

Qo'l barmoqlarida quyidagi naqshlar turlari aniqlangan:

O'ng qo'lning 1- barmog'i: Ravoqsimon – Ravoqsimon - Ravoqsimon (A-A-A) (5); Sirtmoqsimon-ulnar,- Sirtmoqsimon-ulnar,- Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-Lu-Lu) (2); Kalavasimon – Kalavasimon - Kalavasimon (W-W-W) (2); Kalavasimon – Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar. (W-W-Lu) (-5);Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (Lu-Lu-W) (-5); Sirtmoqsimon-ulnar, - Ravoqsimon - Sirtmoqsimon-radial (Lu-A-Lr) (-2);

Chap qo'lning 1-barmog'i: Ravoqsimon – Ravoqsimon - Ravoqsimon (A-A-A) (4); Sirtmoqsimon-ulnar, - Ravoqsimon - Ravoqsimon (Lu-A-A) (4); Sirtmoqsimonkalavasimon – Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimonkalavasimon (LW-LW-LW) (4); Kalavasimon – Kalavasimon - Kalavasimon (W-W-W) (2); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, -Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-Lu-Lu) (1); Ravoqsimon – Kalavasimon -Sirtmoqsimon-ulnar (A-W-Lu) (1); Kakavasimon – Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (W-W-Lu) (-6); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (Lu-Lu-W) (-5); Ravoqsimon – Kalavasimon - Kalavasimon (A-W-W) (-5); Sirtmoqsimonkalavasimon – Sirtmoqsimonkalavasimon - Ravoqsimon (LW-LW-A)(-3);

O'ng qo'lning 2-barmog'i: Ravoqsimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Ravoqsimon (A-Lu-A) (3); Kalavasimon – Ravoqsimon - Sirtmoqsimon-radial (W-A-Lr) (-5); Ravoqsimon – Ravoqsimon - Kalavasimon (A-A-W) (-5); Sirtmoqsimon-radial, - Ravoqsimon - Kalavasimon (Lr-A-W) (-5);

Chap qo'lning 2-barmog'i: Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimonkalavasimon (W-Lu-LW) (4); Ravoqsimon – Ravoqsimon - Ravoqsimon (A-A-A) (3); Kalavasimon - Sirtmoqsimon-radial, - Sirtmoqsimon-radial (W-Lr-Lr) (3); Sirtmoqsimon-radial, - Ravoqsimon - Sirtmoqsimon-radial (Lr-A-Lr) (3); Ravoqsimon - Sirtmoqsimon-radial, - Ravoqsimon (A-Lr-A) (3); Kalavasimon – Kalavasimon - Kalavasimon (W-W-W) (2); Sirtmoqsimon-radial, - Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (Lr-W-Lu) (2); Kalavasimon – Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (W-W-Lu) (-5); Ravoqsimon – Ravoqsimon - Kalavasimon (A-A-W) (-5); Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-radial, (W-Lu-Lr) (-4); Sirtmoqsimon-radial, - Kalavasimon - Ravoqsimon (Lr-W-A) (-4);

O'ng qo'lning 3-barmog'i: Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-radial, - Sirtmoqsimon-radial (Lu-Lr-Lr) (4); Sirtmoqsimon-ulnar, - Ravoqsimon - Ravoqsimon (Lu-A-A) (3); Ravoqsimon - Ravoqsimon - Kalavasimon (A-A-W) (-4)

Chap qo'lning 3-barmog'i: Ravoqsimon – Ravoqsimon -Ravoqsimon (A-A-A) (3); Sirtmoqsimon-ulnar, - Ravoqsimon - Ravoqsimon (Lu-A-A) (3); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-radial, - Kalavasimon (Lu-Lr-W) (3); Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon - Kalavasimon (Lu-W-W) (3); Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (W-Lu-W) (3); Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (LW-Lu-W) (3); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-Lu-Lu) (2); Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-W-Lu) (-5); Sirtmoqsimon-ulnar, -

Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (Lu-Lu-W) (+4); Sirtmoqsimonkalavasimon – Ravoqsimon - Ravoqsimon (LW-A-A) (-4); Ravoqsimon – ravoqsimon - Sirtmoqsimonkalavasimon (A-A-LW) (-3);

O'ng qo'lining 4-barmog'i: Sirtmoqsimon – Ravoqsimon -Ravoqsimon (Lu-A-A) (4); Kalavasimon – Kalavasimon - Kalavasimon(W-W-W) (2); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-Lu-Lu) (2); Kalavasimon – Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (W-LW-Lu) (2); Kalavasimon – Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (W-W-Lu) (-5); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (Lu-Lu-W) (-5) Kalavasimon – Sirtmoqsimonkalavasimon - Kalavasimon (W-LW-W) (-5); Sirtmoqsimonkalavasimon – Kalavasimon - Sirtmoqsimonkalavasimon (LW-W-LW) (-3);

Chap qo'lining 4-barmog'i: Sirtmoqsimon-ulnar, - Ravoqsimon - Ravoqsimon (Lu-A-A) (4); Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimonkalavasimon (LW-Lu-LW) (4); Kalavasimon – Kalavasimon - Kalavasimon (W-W-W) (2); Sirtmoqsimonkalavasimon - Kalavasimon-Kalavasimon (LW-W-W) (2); Kalavasimon – Kalavasimon – Sirtmoqsimon -ulnar (W-W-Lu) (-5); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (Lu-Lu-W) (-5); Sirtmoqsimonkalavasimon – Kalavasimon - Ravoqsimon (LW-W-A) (-3); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimon-ulnar, -Sirtmoqsimonkalavasimon (Lu-Lu-LW) (-3);

O'ng qo'lining 5-barmog'i: Kalavasimon - Kalavasimon-Sirtmoqsimonkalavasimon (W-W-LW) (4); Kalavasimon – Kalavasimon - Kalavasimon (W-W-W) (3); Ravoqsimon - Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon (A-Lu-W) (3); Kalavasimon – Kalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (W-W-Lu) (-6)'

Chap qo'lining 5-barmog'i: Sirtmoqsimon - ulnar, - Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimonkalavasimon (Lu-LW-LW) (5); Kalavasimon – Sirtmoqsimonkalavasimon - Kalavasimon (W-LW-W) (3); Sirtmoqsimon - ulnar, - Sirtmoqsimon-radial, - Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-Lr-Lu) (1); Sirtmoqsimon-ulnar, - Kalavasimon – Sirtmoqsimon - ulnar (Lu-W-Lu) (-6); Sirtmoqsimon-ulnar, - Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (Lu-LW-Lu) (-6); Kalavasimon – Sirtmoqsimonkalavasimon - Sirtmoqsimon-ulnar (W-LW-Lu) (-6); Sirtmoqsimon-ulnar,-Sirtmoqsimon-radial, - Sirtmoqsimonkalavasimon (Lu-Lr-LW) (-2).

